



DEMOGRAPHIC CRISIS AND ITS SOCIAL-MORAL CONSEQUENCES IN THE CONDITIONS OF GLOBALISATION

Alisher Abdumanonovich Khalilov

Senior Lecturer at the Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Email: alisher_xalilov@icloud.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Demographic crisis, globalization, migration, socio-moral consequences, values, aging, birth rate.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article analyzes the impact of globalization on demographic crisis and its socio-moral consequences. Issues such as declining birth rates, accelerated aging of the population, and intensified migration flows are examined as some of the most pressing challenges facing modern societies. The article evaluates the negative effects of the demographic crisis on family values, gender relations, the labor market, and youth upbringing from a socio-ethical perspective. Furthermore, the paper explores the political and social measures taken in certain countries to restore demographic balance. The author emphasizes the crucial role of national values, cultural heritage, and social solidarity in preventing and addressing demographic decline.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA DEMOGRAFIK INQIROZ VA UNING IJTIMOYIY-AXLOQIY OQIBATLARI

Alisher Abdumannonovich Xalilov

“Falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Email: alisher_xalilov@icloud.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Demografik inqiroz, globallashuv, migratsiya, ijtimoiy-axloqiy oqibatlar, qadriyatlar, qarish, tugʻilish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonining demografik inqirozga taʼsiri va uning ijtimoiy-axloqiy oqibatlari tahlil qilinadi. Dunyoda tugʻilish darajasining pasayishi, qarish jarayonining tezlashuvi, migratsiya oqimlarining kuchayishi kabi demografik muammolar zamonaviy jamiyat hayotining dolzarb muammolaridan biri sifatida koʻrib chiqiladi. Maqolada demografik inqirozning oilaviy qadriyatlar, gender munosabatlari, mehnat bozori va yoshlar tarbiyasiga koʻrsatgan salbiy taʼsiri ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan baholanadi. Shuningdek, ayrim mamlakatlar tajribasi asosida demografik muvozanatni tiklashga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy choralar tahlil etiladi. Muallif demografik inqirozning oldini olishda milliy qadriyatlar, madaniy meros va ijtimoiy birdamlik muhim oʻrin tutishini asoslaydi.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ КРИЗИС И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Алишер Абдуманонович Халилов

Старший преподаватель кафедры философии

Ташкентский государственный экономический университет

Email: alisher_xalilov@icloud.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Демографический кризис, глобализация, миграция, социально-этические последствия, ценности, старение, рождаемость.

Аннотация: В статье анализируется влияние процесса глобализации на демографический кризис и его социально-этические последствия. Такие демографические проблемы, как снижение рождаемости в мире, ускорение процесса старения населения, увеличение миграционных потоков рассматриваются как одни из актуальных проблем современного общества. В статье с социально-этической точки зрения оценивается негативное влияние демографического кризиса на семейные ценности, гендерные отношения, рынок труда и образование молодежи. Также на основе опыта некоторых стран анализируются политические и социальные меры, направленные на восстановление демографического баланса. Автор

обосновывает важную роль национальных ценностей, культурного наследия и социальной солидарности в предотвращении демографического кризиса.

Kirish

Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarini anglash, ularni obyektiv baholash oson emas. Ular bir tomondan, insoniyat va sivilizatsiya erishgan yutuqlarga tayanib, integratsiyani kengaytirishga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, gegemonlikka da'vogar qatlamlar va davlatlar ideologiyasini boshqa xalqlarga, qit'alar va davlatlarga zo'rlab singdirishni qo'llab-quvvatlamoda. Ushbu ichki ziddiyatlar globallashuv bayrog'i ostida barcha etnoslar va etnomadaniyatlarning mustaqilligiga raxna solayotgani voqelikka aylanib borayotgani uchun antiglobalistik harakatlar doirasi kengayib borayotgani kuzatiladi. Maqolada globallashuv alohida fenomen sifatida tadqiq etiladi, uning genezisidan tortib to xalqaro aloqalarni ifoda etuvchi voqelikka ko'tarilish bosqichlarigacha ochib beriladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida demografik muammolar va ularning ijtimoiy-axloqiy oqibatlari tadqiq etiladi.

XXI asr globallashuv jarayonlarining jadallashuvi bilan tavsiflanmoqda. Globallashuv insoniyat taraqqiyotining barcha sohalariga – iqtisodiyot, siyosat, fan-texnika, madaniyat va demografiyaga chuqur kirib bordi. Bu jarayon bir tomondan dunyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, integratsiyani kuchaytirayotgan bo'lsa, boshqa tomondan bir qator murakkab ijtimoiy, madaniy va axloqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, demografik holat va undagi keskin o'zgarishlar zamonaviy jamiyat uchun jiddiy muammoga aylangan.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda tug'ilish darajasining izchil pasayishi, aholining qarish jarayonining jadallashuvi, migratsiya oqimlarining kuchayishi, oilaviy institutlarning zaiflashuvi kabi demografik muammolar tobora dolzarb tus olmoqda. Bunday inqirozli holatlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki jamiyatning ijtimoiy va axloqiy tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, tug'ilish darajasining kamayishi mehnat resurslari yetishmovchiligiga olib kelayotgan bo'lsa, aholining qarishi esa pensiya va sog'liqni saqlash tizimlariga yukni oshirmoqda. Shu bilan birga, oilaviy qadriyatlarining susayishi, yoshlar tarbiyasida bo'shliqlar, gender munosabatlarining o'zgarishi va axloqiy me'yorlarning yemirilishi ijtimoiy izolyatsiya, befarqlik va ma'naviy tanazzul kabi holatlarni kuchaytiradi.

Globallashuv bu muammolarning keltirib chiqaruvchisi emas, lekin uni tezlashtiruvchi va kengaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tezkor axborot almashinuvi, ommaviy madaniyat ta'siri, milliy chegaralarning nisbiyligi demografik xulq-atvorga, oila tuzilmasiga va ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, ko'plab davlatlar demografik

inqirozni bartaraf etish, ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish va milliy qadriyatlarni himoya qilish zarurati bilan yuzma-yuz turibdi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganidek: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi” .

Mazkur maqolada aynan shunday demografik inqiroz holatlari va ularning ijtimoiy-axloqiy oqibatlari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi asosida demografik muvozanatni tiklashga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy choralar ko‘rib chiqiladi. Muallif demografik o‘zgarishlarga qarshi kurashishda madaniy-ma’naviy merosni asrash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va ijtimoiy birdamlikni rivojlantirishning o‘rni va ahamiyatini asoslashga harakat qiladi.

Asosiy qism

Globallashuv xalqlar va davlatlarni yaqinlashtirmoqda, S.Xaktington iborasi bilan aytganda, “global madaniyat” yuzaga kelmoqda. Buning o‘zi ijobiy hol, albatta, Chunki:

– azaldan xalqlar madaniyat fenomeni asosida birlashishga intilib keladi; – madaniyatning sotsiokreativ voqeligi insonlar faoliyatini, tasavvurlarini, turmush tarzidagi fundamental jihatlarni umuminsoniy qilib keladi; – madaniyat bilan shug‘ullanmaydigan, madaniy boyliklar yaratmagan yoki yarata olmaydigan xalq, millat, etnos yo‘q; – bugun madaniyatga sivilizatsiya va taraqqiyot, axloq va ma’naviy taraqqiyot mezoni sifatida qaralmoqda, madaniyat kasb etgan yangilik, izlanish, faoliyat e’zozlanadi .

Tarixiy–madaniy rivojlanish shuni ko‘rsatadiki, xalqlar, davlatlar o‘rtasida aloqalar doimo u yoki bu madaniy boylikni yoki tajribani o‘rganish, savdo-sotiq o‘rnatish, ijtimoiy-demografik aloqalarni mustahkamlash negizida qurilgan. Hatto harbiy to‘qnashuvlar va yurishlar paytida ham xalqlar bir-birlari bilan madaniy aloqalar o‘rnatishdan, birbirlarining madaniy boyliklaridan bahramand bo‘lishdan to‘xtamagan. Xalqning, millatning shakllanish jarayonining o‘zi madaniy-ijtimoiy voqelikdir. Akademik A.Asqarov yozadi: “Millatning shakllanishi ham xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo‘lib, millat etnik tarixining eng yuksak yuqori cho‘qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko‘tarilgan xalqning davlat, madaniyati millat nomi bilan yuritiladi, u suveren davlat sifatida ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritadi, millat tili davlat tili maqomini oladi, uning davlat chegaralari qat’iy, daxlsiz bo‘lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinadi, millatning o‘zlikni anglash darajasi yuksak, milliy g‘urur, vatanga fidoyillik, ona zamin va xalqiga sodiqlik, millat fuqarolarining hayot mazmuniga,

kundalik turmush tarziga aylanadi, millatga xos mentalitet shakllanadi, ya'ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizmga aylanadi". Ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida shakllangan xalq, millat madaniyatga tayanmay rivojlanishi va tarix sahnasida yashab qolishi mumkin emas edi. Xalqni xalq, millatni millat sifatida shakllantirgan madaniyat ijtimoiy taraqqiyotning, sivilizatsiyaning hamda kelajakning kafolatiga aylanishi muqarrar edi.

Globalashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir, ayniqsa, demografik sohada yaqqol namoyon bo'lmoqda. So'nggi o'n yilliklarda dunyoning turli hududlarida kuzatilayotgan demografik inqirozlar, ya'ni tug'ilish darajasining keskin pasayishi, aholining qarib borishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi va mehnatga layoqatli aholining qisqarishi, ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Birinchidan, demografik inqirozning asosiy sababi sifatida urbanizatsiya, industrializatsiya, ayollar ta'limi va bandligining ortishi, shuningdek, oilaviy qadriyatlarning transformatsiyalanishi keltirilmoqda. Rivojlangan davlatlarda oilaning funksional vazifalari qisqarib, bolalar sonining kamayishiga olib kelmoqda. O'z navbatida, bu holat mehnat bozorida bo'shliqlar, pensiya tizimining izdan chiqishi va sog'liqni saqlash sohasidagi yuklamaning ortishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, global migratsiya oqimlari demografik muvozanatni yanada murakkablashtirmoqda. Rivojlangan davlatlar o'zlaridagi mehnat resurslarini to'ldirish maqsadida kam rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlardan mehnat migrantlarini jalb etmoqda. Bu esa, bir tomondan, demografik inqirozni yumshatishga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomondan, ijtimoiy integratsiya, millatlararo munosabatlar va madaniyatlar to'qnashuvi kabi dolzarb muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Uchinchidan, aholining qarib borishi masalasi global miqyosda demografik siyosatni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga kelib, 60 yoshdan yuqori aholining umumiy ulushi 20% dan oshadi. Bu esa sog'liqni saqlash tizimiga qo'shimcha bosim, pensiya va ijtimoiy ta'minot fondlariga ortiqcha yuklamani keltirib chiqaradi. Ayniqsa, Sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida bu jarayon tezlashmoqda.

To'rtinchidan, demografik inqirozning ijtimoiy-axloqiy oqibatlari ham jiddiy e'tiborga loyiq. Kichik oilalar modeli, shaxsiy manfaatlar ustuvorligi, avlodlararo aloqalarning zaiflashuvi, yolg'izlik, g'amxo'rlik yetishmovchiligi kabi muammolar jamiyatda ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy tushkunlik holatlarini kuchaytirmoqda. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tug'ilish darajasining pasayishi nafaqat iqtisodiy omillar bilan, balki madaniy-axloqiy qadriyatlar eroziyasi bilan ham bog'liqdir.

Beshinchidan, demografik inqiroz global tengsizlikni kuchaytiradi. Rivojlangan davlatlar aholisi qarib borayotgan bo'lsa, ba'zi Afrika va Osiyo mamlakatlarida aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda. Bu demografik portlash esa o'z navbatida resurslar tanqisligi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlaridagi muammolar, ishsizlik, ijtimoiy norozilik va siyosiy beqarorliklarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, demografik inqirozning ayollar roliga bo'lgan qarashlar va gender tengligiga ham o'ziga xos ta'siri mavjud. Rivojlangan davlatlarda ayollarning professional faoliyatga ko'proq jalb etilishi, tug'ilish darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar "moslashuvchan ish va oilaviy hayot" konsepsiyasini joriy etib, ayollarning farzand tarbiyasi va ish faoliyatini uyg'unlashtirishga intilmoqda.

Global demografik inqiroz zamonaviy davrning eng jiddiy ijtimoiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu muammo nafaqat iqtisodiy tizimga, balki ijtimoiy tuzilmalarga, madaniyat va axloqiy qadriyatlar tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun, demografik siyosatni qayta ko'rib chiqish, oilani qo'llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, avlodlararo aloqalarni kuchaytirish va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Demografik inqirozni faqat statistika doirasida emas, balki ijtimoiy, axloqiy, madaniy va psixologik jihatlarni hisobga olgan holda tahlil qilish, zamonaviy global siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar

Globallashuv jarayonlari dunyo aholisining turmush tarziga, qadriyatlariga va demografik holatiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Oxirgi yillarda ko'plab mamlakatlarda tug'ilish darajasi kamayib, aholining qarib borishi, nikohlarning kechikishi, oilaning kichrayishi kabi demografik muammolar kuchaymoqda. Bu holat ijtimoiy hayotda qator salbiy oqibatlarga olib kelmoqda: avlodlararo aloqa zaiflashmoqda, yolg'izlik, ruhiy tushkunlik holatlari ko'paymoqda, ijtimoiy izolyatsiya kuchaymoqda.

Demografik inqirozning yana bir muhim jihati shuki, u nafaqat iqtisodiy muammolarni, balki axloqiy qadriyatlarning yemirilishini ham keltirib chiqarmoqda. Odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat, oilaviy mas'uliyat, farzand tarbiyasiga bo'lgan munosabat sezilarli darajada o'zgarmoqda. Bundan tashqari, global migratsiya jarayonlari ham demografik muvozanatni buzmoqda. Bir mamlakatda aholi kamayib borayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda ortiqcha o'sish, ishsizlik, resurslar tanqisligi kuzatilmoqda. Bu esa barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, demografik inqiroz zamonaviy jamiyat oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Uni faqat iqtisodiy yo'l bilan emas, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy yondashuvlar orqali hal qilish lozim. Bu borada davlat siyosatida oilani qo'llab-quvvatlash,

yoshlarni sogʻlom qadriyatlar asosida tarbiyalash va demografik barqarorlikni taʼminlashga alohida eʼtibor qaratish zarur.

Tavsiyalar:

1. Demografik barqarorlikni taʼminlash uchun davlat darajasida oilani qoʻllab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish zarur. Xususan, yoshlarga uylanish va farzand koʻrishni ragʻbatlantiruvchi moddiy va ijtimoiy dasturlar (uy-joy, soliq imtiyozlari, ona va bola salomatligini himoyalash) kengaytirilishi lozim.

2. Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash orqali yoshlar orasida oilaviy masʼuliyat, ota-onaga hurmat, avlodlararo birdamlik kabi anʼanaviy qadriyatlarni tiklashga eʼtibor qaratish kerak. Bu borada taʼlim muassasalari, OAV va diniy-maʼrifiy tashkilotlar oʻzaro hamkorlikda ishlashi muhim.

3. Demografik inqirozning oldini olishda gender tengligi va ayollar uchun moslashuvchan ish sharoitlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Ayollarni ish va oilaviy hayotni birgalikda olib borishga koʻmaklashuvchi tizimlarni (masalan, yarim stavkali ish, masofaviy mehnat) keng joriy etish lozim.

4. Migratsiya siyosatini tizimli ravishda boshqarish, mehnat migrantlarining huquqiy va ijtimoiy himoyasini taʼminlash orqali demografik muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, migrantlar va mahalliy aholi oʻrtasida ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish choralari koʻrilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oʻzbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi maʼruzasi// Xalq soʻzi, 2017, 4 avgust.
2. Asqarov A. Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.-Toshkent: Universitet, 2007. 59b.
3. Furedi, F. (1997). Population and Development: A Critical Introduction. – Cambridge: Polity Press.
4. Joʻrayev, M. (2021). Globallashuv sharoitida demografik jarayonlar va ularning ijtimoiy oqibatlar. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
5. Islomov, Z. va boshqalar. (2020). Demografiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot va taʼlim nashriyoti.
6. Philip Morgan, S. (2003). Is low fertility a twenty-first-century demographic crisis?. Demography, 40, 589-603.
7. Radu, L., & Radu, C. Consequences Of The Demographic Crisis. Global Economic Observer, 2(2). 2014.

8. United Nations, Department of Economic and Social Affairs. (2023). World Population Prospects 2022: Summary of Results. – New York: United Nations.
9. Xajiyeva M.S., Xatamov F.F., Matyaqubova F.B. Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: – “SamDCHTI” nashriyoti, 2023. 28b.